TOPONIMLAR VA ETNOTOPONIMLARNING XALQ TERMINLARI ASOSIDA SHAKLLANISHI

Tojiboyev Munavarjon Numonjonovich
FDU mustaqil izlanuvchi,
ORCID: 0009-0005-6008-2110
email: tojiboyevmunavvarjon@gmail.com

Annotatsiya*: Toponimlar chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyat tarixida sodir bo‘lgan voqea va hodisalar toponimlarda aks ettiriladi. Xususan, etnotoponimlar hududning poydevorini, o‘zagini bildiradi. Ushbu maqolada biz etnotoponimlar va tarixiy nomlarning o‘rganish tarixi hamda ularning manbalarini ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar*: manbalar, toponimlar, antropotoponimlar, bitiklar, qo‘lyozmalar, etnonimlar, Avesto, etnotoponomika*.

KIRISH.

Tarixni bilish, tarixni sevish uni anglash,undan saboq chiqarish hamda o‘rnak olish insonda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantiradi. Shu sababli bugungi kunda yurtimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda . Xususan, yurtboshimizning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagi jumlalar “…milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim” fikrimizni tasdiqlaydi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabr “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori va boshqa normativ- huquqiy aktlarni qabul qilinishi tarix fani rivojiga turtki berdi.

ASOSIY QISM.

Toponimlarni o‘rganish va uni bilish albatta dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Biz o‘zimiz yashayotgan hududni (ko‘cha, mahalla, guzar, qishloq, ovul, tuman, shahar, viloyat, vodiy, voha, mamlakat, mintaqa, qit’a, materik, dunyo) va geografik obyektni (ariq, quduq, soy, kanal, daryo, dengiz, okean, tepa, jar, adir, qiya, qir, tog‘ va kabi landshftlar) tushuna olishimiz, his qila olishimiz va qiziqqa olishimiz mana shu muhimlik ekanligi diqqatga sazovordir. Xususan, shu sohadagi va jarayondagi bilimlarimiz toponomik bilimlar hisoblanadi. Toponomik tadqiqotlardan ayon bo‘lgan eng muhim jihat uning yondosh va ko‘makchi fanlari hisoblanadi.

1) Geografiya – siz qayerda yashayapsiz , shu joylashgan hududingiz geografiya , ya’ni yer hisoblanadi. Demak biz joylashgan obyektlarimiz bir qancha tuzilishlarga, ko‘rinishlarga ega. Bularning hususiytidan kelib chiqib, unga nom beramiz, bu geografik terminga aylanadi hamda ilm-fanda va jamiyatda qo‘llaniladi.

Toponimika ayniqsa, geografiya uchun katta ahamiyatga ega. Toponim — geografik obyektning aniq manzilidir. Nomlar joyning geografik o‘mini aniqlash uchun

ham, geografik tushunchalami ifoda etish uchun ham zarur. Geografik xaritada keltirilgan boy va xilmaxil axborotlar orasida nomlar alohida o‘rin tutadi. Geografik obyektlar shu qadar ko‘p va xilma-xilki, ulami ifoda etish uchun maxsus so‘zlar, ya’ni nomlar bo‘lishi kerak. Geografik nomlarni geografiyaning o‘ziga xos tili desa boiadi. Geografik nomlar muayyan geografik tushunchalami ifoda etar ekan, bir qancha hollarda atamaga aylanib qoladi. Masalan, yonar togiarni ifoda etuvchi *vulkan* atamasi Italiyadagi *Vulkano* tog‘i nomidan olingan. Toponimlar biron geografik tushunchani ifoda etadi, shuning uchun geografiyani bilmasdan turib joy nomlarini o‘rganish ko‘pincha katta ilmiy xatolarga olib kelishi mumkin. Joy nomlarida geografik muhitning xususiyatlari — relef shakllari, o‘simlik va hayvon nomlari aks etgan boladi [7.11].

2) Tarix – Joy nomlarini tarixini bilmay turib ham aniq tasavvurga ega bo‘lib bo‘lmaydi. Toponimning nimaga bunday nomlanganligi, qachondan atala boshlashi kabi omillari bevosita tarix fani bilan aloqadorligiga sabab bo‘ladi. Masalan, Farg‘ona viloyatining bir qancha tumanlarida arab etnonimi bilan bog‘liq qishloqlar bor. Arabmozor (Toshloq), Eskiarab, Yangiarab (Oltiariq), Arab (Buvayda) , Aravon (Dang‘ara) shular jumlasidandir. Ushbu qishloqlarning paydo bo‘lishini arablar o‘lkamizga kirib kelgandan so‘ng, ya’ni, VIII –IX asrlarga borib taqalishi mumkin. Xususan, ular kirib kelgandan keyin, arablarga ushbu hududlar berilgan bo‘lishi yoki arablar avlodlari bu joylarda yashagan bo‘lishini taxmin qilishimizda tarix fani yordam beradi.

Toponimlarda turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslaming ismlari, ko‘chib yurgan urug‘ nomlari aks etgan bo‘ladi. Buxoro viloyatida ***Abumuslim*** degan tepalik bor. Abumuslim 747- 749 yillarda arab xalifaligining sharqiy qismida — Movarounnahr bilan Xurosonda ummoviylar hukmdorligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga boshchilik qilgan. Uning asl ismi Abdurahmon ibn Asad bo‘lib, Abumuslim uning laqabidir. Bu tepalik VIII asr o‘rtalarida Buxoroning hozirgi Qizihepa qishlog‘i yaqinida Abumuslim qurdirgan istehkomning xarohasi. Xaroba Abumuslim kanalining bosh tomomdadir. Bu kanalni buxoroliklar ***Jo‘y i Abumuslim*** deb ataydilar. Kanal Zarafshondan boshlangan[7.15]. Bu fikrimizning yana bir isbotidir.

Ba’zi bir ma’lumotlarning esa xalq orasida tarixga , xuusan uzoq o‘tmishga bog‘lashlariga dalillar yetishmaydi. Bunday holatda biror joy nomidagi voqelik yoki shaxs tarixiylikda bo‘lsa-da, ammo umuman aloqodar bo‘lmasligi mumkin. Masalan, Farg‘ona viloyati Rishton tumanida Iskandarcho‘l degan qishloq mavjud. Ushbu joyni mahalliy aholini ayrim qismi va yuzaki o‘ylagan insonlar tarixdagi Makedoniyalik Aleksandrga bog‘lashadi. Vaholanki, ushbu qishloqning katta va ilmli shaxslari bilan suhbat olib borilganda, asli shu tumanning Bo‘jay qishlog‘ida istiqomat qilan Iskandar ota ushbu yerlarni o‘zlashtirishda, obod qilishda katta ishlarni amalga oshirganligini ta’kidlaydilar. Shu sababli, Iskandar yeri, Iskandar cho‘li deb xalq orasida muomalada bo‘lib, bugungi kunda Iskandarcho‘l deb ataladi.

Yunonlaming 0’rta Osiyoga kirib kelishi toponimiyada biron bir sezilarli iz qodirmagan. Tojikistondagi ***Iskandarko‘1*** nomining Iskandar Zulqarnayn ismiga hech aloqasi yo‘q. Chunonchi, Bobur bu ko‘lni tilga olganda uning biron-bir nomini keltirmaydi. Bundan tashqari, ***Iskandar, Iskandarariq, Iskandar daryo, Iskandarquduq*** kabi toponimlar anchagina uchraydi. Tarixchi A.Muhammadjonovning ta’kidlashicha,

O‘zbekistonda Iskandar nomli quduqlar anchagina bor. Xalq bu quduqlami makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog‘laydi.
Aslida bu nomlaming ko‘plari keyingi paytlarda paydo bo‘lgan. Masalan, Toshkent yaqinidagi ***Iskandarariq*** xalq orasida Iskandarto‘ra laqabi bilan mashhur bo‘lgan chor Rossiyasining knyazi Nikolay Nikolayevich nomi bilan ma’lum[7.22].

Viloyatimizning ko‘plab joylarida etnonimlar mavjud, masalan, qipchoq, mang‘it, kenegas, ming, qo‘ng‘irot kabi. Chunonchi, bu qabilalarning hududlar nomi bilan atalishidan ma’lum bo‘ladiki, toponim ushbu qabila yoki urug‘ning tarixi, madaniyati, etnografiyasi, tili, shevasi va urf-odatlari bilan chambarchas bo‘ladi. Tilshunoslik – biz joy nomini geografik hamda tarix jihatdan bildik deylik, lekin nomning lingvistik hususiyatlari, etimologiyasi, turdosh yoki atoqli otligi, morfologiyasini bilish yanada muhim hisoblanadi. Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida Oqbo‘yra qishlog‘ini misol qilib olaylik.

Y.Ahmadaliyev “Farg‘ona viloyati toponimlari” asarida ushbu toponim haqida shunday ma’lumotlar beradi. Oqbo‘yra - Oltiariq tumanidagi qishloq. Oqbo‘yra urug‘ nomi sifatida qayd etiladi. Etimologiyasini aniqdashda nomning ikkinchi-qismidagi Buvra, Bugra, Bura «tuya, oq tuya» so‘zi bilan bog‘lash ham mumkin. Bura yoki buyra geografik termin sifatida «yonbosh, yonbag‘ir, qirg‘ok, chekka» degan ma’noni anglatadi (Do‘simov., 1977; Qorayev., 1970). Demak, bu ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, uchala jihat ham mavjud. Geografik termin sifatida qirg‘oq, chekka, tarixiy nuqtai nazardan oqbo‘yra etnonim hisoblanadi.

Oq komponenti deyarli turkiy xalqlarda ko‘p sonli etnonimlarni hosil qiladi: (qozoqlarda) *oqbaliq*, (o‘zbeklar va qirg‘izlarda) *akbash,* (qirg‘izlarda) *akbuyra*, (qozoqlarda) *akbura*, (qirg‘izlarda) *akdjol,* (turkmanlarda) *akduglat*, (qirg‘izlarda) *akechki,* (qoraqalpoqlarda) *akkaun*, (qozoqlarda) *akkiyik*, (qirg‘izlarda) *akkozu*, (turkmanlarda) *akkumli*, (boshqirdlarda) *akkipchak,* (turkmanlarda) *ak* va *aklar*, (qoraqalpoqlarda) *akmangit*, (o‘zbeklar va turkmanlarda) *aksari, aktondu*, (o‘zbeklar, qirg‘izlarda) *aktonni* va boshqalar. Taxminiy ma’lumotlar bo‘yicha, ak sifati bilan bog‘liq turkiy xalqlar urug‘-qabilalarining umumiy miqdori 200 dan ortiq birlikni tashkil qiladi. Qora komponenti bilan bog‘liq turkiy xalqlardagi etnonimlar esa undan ham ko‘pdir [4.118].

Dala amaliyotlarini olib borganimizda lingvistik jihatdan tahlili xaqiqatga yaqinligini ko‘rsatdi. Xususan, mahalliy qishloq nomini tarixini bayon etganda, bu hududda ilgari juda ko‘p qamishlar o‘sganligini ulardan uyning tomlarini yopish uchun yoki pol o‘rnida to‘shama hamda gilamcha sifatida foydalanganlarini aytib o‘tishdi.[66] Buyra bu qamish yoki poxoldan to‘qilgan yozgi gilamcha, eski davrlarda uy jihozi sifattida ishlatilgan buyum hisoblangan. Mahalliy aholining asosiy turmush tarzi bo‘yra yasash bo‘lganligi, atrofdagi hududlar aholisi bo‘yraga boramiz, oq bo‘yraga boramiz (chunki yasaladigan bo‘yralarni rangi oq, och sariq ranglarda bo‘lgan) jumlalari hudud nomiga aylangan. Demak, joy nomlarini aniqlashda, ularga qo‘shiladigan suffikslar tahlilida tilshunoslikning ahamiyati katta hisoblanadi. Tilshunoslikning toponimlarga yanada bog‘liq jihati xalq terminlari bo‘lishi bu fanning ahamiyatini oshiradi.

[66] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani Oqbo‘yra qishlog‘i.2025-yil.

Xalq terminlari — xalqning kundalik turmush-tarzi, an’analari, kasb-kori, yashash muhiti, tabiati va tarixiy tajribasi asosida shakllangan milliy so‘z hamda atamalardir. Ular ko‘pincha ilmiy terminlardan farqli ravishda oddiy xalq tilida paydo bo‘ladi va uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi.

Geografik terminlarga quyidagi talabalar qo‘yiladi:

1.Terminlar ilmiy va etimologik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak.Bunga fanning nomini misol qilib keltirish mumkin: geografiya deb atalgani ma’qulmi, jo‘g‘rofiya deyilganmi? Geografiya termini asli yunoncha bo‘lib, geo-yer, grafo-tasvirlayman so‘zlaridan iborat. Jo‘g‘rofiya bizga ingliz va turklar orqali kirib kelgan bo‘lib, geografiyaning buzilgan shaklidir .Geo-yer so‘zi bilan boshlanadigan bir qancha fanlar bor: geografiya, geologiya, geomorfologiya, geofizika, geotektonika, geodeziya va boshqalar. Qolganlari o‘zgarmagan holda faqat geografiayni jo‘g‘rofiya deb o‘zgartirish bu ilmiy va etimologik jihatdan xató hisoblanadi. Aynan o‘z nomida turishi maqsadga muvofiqdir.

2.Terminlar ko‘pchilikka tushunarli, aytishga oson, ixcham, tugal ma’noli bo‘lishi kerak. Keyingi vaqtda taklif qilingan muvoziy, mador, bar, jo‘g‘rofiyun kabi atamalar arabchadan kirib kelgan bo‘lib, hozirgi vaqtda muomaladan chiqib ketgan, ularga ko‘pchilik tushunmaydi. Binobarin, ularni qo‘llanish maqsadga muvofiq emas. Ular o‘rniga parallel, tropik, dengiz (okean), geograf atamalari paydo bo‘lishi barchaga tushunarli jihat hisoblanadi.

3.O‘zbek tili qoidalariga mos bo‘lishi kerak.

4.Terminlar lug‘ati boyligi qotib qolgan emas. Eskirgan terminlar muomaladan chiqib ketib, yangilanishi, yangi terminlar kirib kelishi mumkin. Masalan: Xattiystvo, mador, qarat, bahr, ummon o‘rniga ekvator, tropik, materik, dengiz, okean deb ataladigan bo‘lgan.

Demak, geografik terminlar, xalq terminlarining toponomikadagi o‘rni va ahamiyati haqida ilmiy xulosalarga yondashib, Farg‘ona viloyati toponimlari va etnotoponimlarini xalq terminlari asosida shakllanishiga to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, Farg‘ona viloyati tabiatan dehqonchilikka qulay, serunum hudud hisoblanadi. Yashil vodiy, Oltin vodiy nomlarini olgan mintaqaning yuragi bo‘lgan viloyat qadim qadimdan yutimiz tarixida qishloq xo‘jaligi sohalari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bunda so‘lim tabiat, unumdor tuproq, sersuv va mineralga boy suv havzalari , atrofni o‘rab turgan ulkan tog‘lar fikrimizning dalilidir.Shu sababli ko‘plab toponimlar terminlarida bu aksini topgan.

Ariq bu suniiy sug‘orish tarmoqlaridan biri bo‘lib, daryoladan kanal hamda soylarga burilgan suvlardan kichik obyektlarga ajratilgan suv havzasi hisoblanadi. Ariq (ar - qadimiy eroniy tillarda *oqmoq* fe’lining o‘zagi, ya’ni “suv”) - suv yo‘li [6.335] deb izoh berilgan. *Ariq, bog‘, buloq, dam, daryo,dovon, ja r, ko‘prik, ko‘cha, tepa, tog\ soy* va hokazo kabi geografik terminlaming oldiga yoki orqasiga bir ot, sifat, son yoki qandaydir qo‘shimcha qo‘shilsa, ob’ektlaming xususiyatlarini aks etdiradigan toponimlar hosil bo‘ladi. Chunonchi, *Beshariq, Chuqurbidoq, Naymanariq, Otquduq, Eshonqishloq, Hasanko‘prik, Tuzdovon, Uchtepa, Qoradaryo, Chorbog‘ Yomonjar* va boshqalar [6.36]. Viloyatimizning ko‘plab joylarida ariq termini bilan bog‘liq toponimlar mavjud. Viloyatning ikkita katta tumani ham ariq termini bilan bog‘langan. Beshariq va Oltiraiq

tumanlari bo‘lib, ikkalasi ham gidronim sifatida hududning sug‘orish hususiyati bog‘liq joy nomlaridir. Masalan, Oltiariq mahalliy rivoyatlar va ayrim ensiklopedik manbalarda aytilishicha, qadimda Oltiariqsoy suvi Qapchig‘ay darasidan chiqib, Povulg‘on, Polosoy, Laylakxona, Yangiqo‘rg‘on, Jo‘ra va Kitkon kabi hududlarga boruvchi olti ariqqa bo‘lingan. Viloyatda kuzatiladigan boshqa ariq terminiga oid toponimlar: Ariqboshi (Beshariq), Damariq (Buvayda), Belariq (Oltiariq), Qizilariq (Qo‘shtepa), Damariq (Quva), Uchariq (Rishton), Qumariq, Xo‘jaariq, Ko‘lariq, Xonariq, Qipchoqariq (Toshloq), Qumariq (Uchko‘prik).

Bog‘ terminiga ham hududda ko‘p toponimlarda uchratamiz. O‘zbek va fors-tojik tillarida qadimdan ishlatilib kelinadigan so‘z bo‘lib, mevali daraxtlar , uzumzor va gulzor ekilgan yer ma’nosini anglatgan. Toponim sifatida “bog‘” komponenti ishtirok etgan joy nomlari odatda, serdaraxt, mevazor, obod, yashil hudud bo‘lgan obyektlarni bildiadi. O‘tmishda yurtimizda bog‘lar yaratgan hukmdorlar juda talay bo‘lib, xususan , Amir Temur o‘lkada maxsus bog‘lar barpo etgan hamda bu joylarga bog‘ termini aralshgan nomlar qo‘yilgan. Masalan, Bog‘i Baland, Bog‘i Dulkusho, Bog‘i Maydon, Bog‘i Nav kabi. Viloyatimizda bog‘ termini bilan keladigan joy nomlari : Bog‘ibo‘ston (Furqat), Bog‘iston (Rishton), Afg‘onbog‘, Qirilbog‘ (O‘zbekiston), Chorbog‘, Bog‘iston (Uchko‘prik) shular jumlasidandir.

Buloq termini ham suv joyini bildirib, gidronim hisoblanadi. **Buloq** — “chashma”, “ jilg‘a”, “ariq” ma’nolarida Sibirdan Mo‘g‘uliston orqali Qozog‘iston, Qirg‘izston, O‘zbekistongacha, g‘arbda Kavkazgacha, shimolda Tatariston va Boshqirdiston Avtonom Respublikalarigacha, sharqda ***XXR Shinjan avtonom*** rayonigacha, janubda Eron va Afg‘onistongacha toponimlar tarkibida takror-takror uchraydigan geografik atama. Turkolog E.V. Sevortyan ***buloq*** so‘zi “oqmoq”, “aralashtirmoq” ma’nosidagi ***bula*** fe’lidan kelib chiqqan degan fikmi bildirgan [7.175]. Shuni ham ta’kidlab ketish joiz, buloq termini o‘zbek urug‘laridan biri ham bo‘lishi mumkin. Bu haqida olim Yusufjon Ahmadaliyev “Farg‘ona viloyati toponimlari” kitobida quyidagicha mulohaza qilgan. Buloqboshi – Qo‘qon shahridagi maxalla va Rishton tumanidagi qishloq nomi. Axoli maskani buloqning boshlanishi tomonidan bo‘lganligi uchun shunday nomlangan. Buloqboshi sarchashma so‘ziining o‘zbekchasidir. Buloqboshi nomli o‘zbek urug‘i ham bor (Qorayev., 1970). E.Murzayevning yozishicha, bu so‘z «oqmok», «aralashmoq» fe’lidan olingan (1984). Buloqning harakterini, shaklini, sonini, egasini ifodalovchi so‘zlar qo‘shilib ko‘plab joy nomlari hosil bo‘lgan, jumladan, Yettibuloq, Zarbuloq, Oqbuloq, To‘qqizbuloq kabi joy nomlari «buloq» so‘zi bilan bogliq. Viloyatimizda uchraydigan buloq termini bilan ataladigan joy nomlari: Kandabuloq (Quva), Buloqboshi (Rishton), Qaynarbuloq, Uchbuloq (O‘zbekiston).

XULOSA.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tarix bu charxpalak, chunonchi madaniyatlar charxpalagi, ya’ni davrlar, tuzumlar davomiyligida insoniyat turmush tarzi, madaniyati o‘zgarib boradi va sayqallanadi. Shu yo‘sinda bizning urug‘ va elatlarimiz ham tarixiy jarayonlarda toblandi, tarix yaratilishida ishtirok etdi hamda butun kelajakka muhrlandi. Shu muhrlangan tuzilma bugun biror hudduni anglatmoqda. Ushbu jarayonni bugungi avlodga yetkazishda , tanitishda moddiy manbalar hamda ma’naviy va yozma

manbalarning o‘rni salmoqlidir. Shu asnoda yuqoridagi izlanish hamda ma’lumotlar mavzumizni yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abdullayev U. S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX –XX asr boshlari). Tarix fanlari dokt…diss. – T., 2006.

2. Ahmadali Asqarov -O‘zbek xalқining etnognezi va etnik tarixi.-o‘quv qo‘llanma.-T.:Universitet,2007.

3. Ahmadaliev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik // O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona.: Poligraf Servis”, 2018.

4. A.A.Maxmudaliyev, B.B.To‘ychiboyev, G‘.G.Yusupov Sirdaryo viloyati toponimlari [Matn] - Guliston: Ziyo nashr-matbaa, 2024.

5. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. –T.: Fan, 1968.

6. Qo‘chqor Hakimov. Toponimika: “Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik Toshkent: Mumtoz so‘z 2016.

7. Qoraev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T. 2006.